UO‘K 821.111.09

INGLIZ ILMIY FANTASTIKASIDA ILMIY KASHFIYOT VA AXLOQIY MAS’ULIYAT TALQINI

Abdurashidova Nilufar Abdurashidovna,
Toshkent davlat transport universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: nilufarabdurashidova0700@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0000-0003-1365-2203

Annotatsiya: *Maqolada ingliz ilmiy fantastikasida* ilmiy kashfiyot va uning muallifi zimmasidagi axloqiy mas’uliyat masalasining badiiy talqini tadqiq etiladi. M.Shelli, R.L.Stivenson va G.Uells asarlarida shakllangan an’ana fonida A.K.Doylning “Raffls Xouning kashfiyoti”, “Braun-Perikordning ulkan motori”, “Yo‘qolgan dunyo”, “Xavf!”, “Dunyo chinqirganda” va “Marakot jarligi” asarlari tahlil qilinadi. Mas’uliyatning to‘rt yo‘nalishi – jamiyat, hamkor, “boshqa” mavjudot va abadiy tartib oldidagi mas’uliyat ajratiladi.

Kalit so‘zlar: ilmiy kashfiyot, axloqiy mas’uliyat, olim obrazi, ixtirochi, ilmiy romans, ijtimoiy darvinizm, ogohlantirish, o‘lmaslik

THE INTERPRETATION OF SCIENTIFIC DISCOVERY AND MORAL RESPONSIBILITY IN ENGLISH SCIENCE FICTION

Abstract: The article investigates the artistic interpretation of scientific discovery and of the moral responsibility borne by its author in English science fiction. Against the background of the tradition established by M. Shelley, R.L. Stevenson and H.G. Wells, A.C. Doyle’s “The Doings of Raffles Haw”, “The Great Brown-Pericord Motor”, “The Lost World”, “Danger!”, “When the World Screamed” and “The Maracot Deep” are analysed. Four directions of responsibility are distinguished: towards society, towards the partner, towards the “other” creature and towards the eternal order.

Keywords: scientific discovery, moral responsibility, image of the scientist, inventor, scientific romance, social Darwinism, warning, immortality

ТРАКТОВКА НАУЧНОГО ОТКРЫТИЯ И НРАВСТВЕННОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ В АНГЛИЙСКОЙ НАУЧНОЙ ФАНТАСТИКЕ

Аннотация: В статье исследуется художественная трактовка научного открытия и нравственной ответственности его автора в английской научной фантастике. На фоне традиции, сложившейся в произведениях М. Шелли, Р.Л. Стивенсона и Г. Уэллса, анализируются «Деяния Раффлса Хоу», «Великий двигатель Брауна-Перикорда», «Затерянный мир», «Опасность!», «Когда Земля вскрикнула» и «Маракотова бездна» А.К. Дойла. Выделяются четыре направления ответственности: перед обществом, перед партнёром, перед «другим» существом и перед вечным порядком.

Ключевые слова: научное открытие, нравственная ответственность, образ учёного, изобретатель, научный романс, социал-дарвинизм, предостережение, бессмертие

Kirish: Ilmiy kashfiyotning axloqiy qiymati masalasi ingliz ilmiy fantastikasi bilan deyarli bir vaqtda tug‘ilgan. Janrning boshlanishi ko‘pincha tajriba natijasida yaratilgan mavjudot va uning yaratuvchisi o‘rtasidagi fojiaviy munosabat tasvirlangan asar bilan bog‘lanadi. Shundan beri ingliz adabiyotida olim faqat bilim egasi emas, o‘z bilimining oqibatlari uchun javob beruvchi shaxs sifatida ham tasvirlanadi. XIX asr oxiri va XX asr boshida ilm-fan kundalik turmushga tez kirib kelgan, telegraf, elektr, aviatsiya va suv osti kemasi yangilik emas, voqelikka aylangan edi. Shu sharoitda ilmiy fantastika kashfiyot qanday amalga oshadi, degan savoldan ko‘ra, kashfiyot kimga xizmat qiladi va uning bahosini kim to‘laydi, degan savolga ko‘proq e’tibor qarata boshladi.

A.K.Doyl bu savolni o‘z ilmiy-fantastik ijodining deyarli barcha bosqichlarida qo‘ygan. Uning asarlarida mas’uliyat masalasi bir xil shaklda takrorlanmaydi, har bir asarda u yangi tomondan ochiladi. Maqolaning maqsadi

ingliz ilmiy fantastikasidagi kashfiyot va mas’uliyat talqinining asosiy yo‘nalishlarini aniqlash hamda Doyl asarlarida ularning qanday o‘zgarishga uchraganini ko‘rsatishdan iborat. Tadqiqotning dolzarbligi ilm-fan va axloq munosabati bugungi kunda ham, ayniqsa, biotexnologiya va sun’iy intellekt davrida, ijtimoiy ahamiyatini yo‘qotmagani bilan belgilanadi.

Adabiyotlar tahlili: B.Oldiss ilmiy fantastika tarixini M.Shellining “Frankenshteyn” romanidan boshlab, janrni gotik yoki postgotik shaklda kechadigan, inson va uning koinotdagi o‘rnini izlash deb ta’riflaydi [1]. Bu ta’rifda kashfiyot inson o‘zini qanday tushunishining bir shakli sifatida qaraladi. D.Suvin XX asr ilmiy fantastikasining yetakchi vazifalaridan biri sifatida tashxis va ogohlantirishni ko‘rsatadi [2]. B.Steblford Britaniya ilmiy romansida Amerika jurnal fantastikasiga xos texnik optimizmdan farqli o‘laroq, ilm-fan taraqqiyotiga nisbatan ehtiyotkor va ko‘pincha pessimistik munosabat ustun bo‘lganini qayd etadi [3]. “The Encyclopedia of Science Fiction”ning olimlarga bag‘ishlangan maqolasida XX asrgacha bo‘lgan ilmiy fantastikada olim ko‘pincha jamiyatdan ajralgan, o‘z g‘oyasiga berilgan shaxs sifatida tasvirlangani va bu obraz alkimyogar hamda sehrgar obrazlaridan meros qolgani ta’kidlanadi [4].

Rus faylasufi A.N.Fetisova ilmiy-fantastik adabiyotning asosiy ma’nosini ilmiy taraqqiyotning inson ruhiyati va turmushida aks etishini ko‘rsatishda ko‘radi [5]. M.V.Urnov esa XIX–XX asrlar chegarasidagi ingliz adabiyotida Doylni “harakat adabiyoti” vakillari qatorida tahlil qilgan [6]. O‘zbek adabiyotshunosligida N.Abdurashidova Doyl ilmiy fantastikasida umumbashariy muammolarning yechimi masalasini qisqacha yoritgan [7]. Biroq Doyl asarlaridagi mas’uliyat talqini ingliz an’anasi bilan qiyoslangan holda tizimli o‘rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqotda tarixiy-adabiy, qiyosiy va motiv tahlili metodlari qo‘llanildi. Material ikki guruhga bo‘lindi. Birinchi guruhni an’anani belgilovchi asarlar, ya’ni M.Shellining “Frankenshteyn” [8], R.L.Stivensonning “Doktor Jekil va mister Haydning g‘aroyib hikoyasi” [9] va G.Uellsning “Doktor Moro oroli” [10] asarlari tashkil etdi. Ikkinchi guruhga Doylning 1891–1929-yillarda yozilgan olti asari kiritildi. Har bir asarda kashfiyot

muallifi, kashfiyot natijasidan zarar ko‘rgan tomon va mas’uliyatning qanday anglanishi qayd etildi. Ingliz tilidagi parchalar muallif tarjimasida berildi.

Tahlil va natijalar: Ingliz an’anasida mas’uliyat masalasi uch klassik asarda uch xil shaklda qo‘yilgan. “Frankenshteyn”da olim o‘zi yaratgan mavjudotdan qochadi va uning keyingi taqdiri uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaydi. Fojia kashfiyotning o‘zidan emas, yaratuvchining tashlab ketishidan kelib chiqadi. Stivenson qissasida kashfiyot tashqi olamga emas, olimning o‘ziga qaratiladi. Doktor Jekil o‘z tabiatidagi yovuz ibtidoni ajratib oladi va bu tajriba uning shaxsiyatini yemiradi. Uells romanida doktor Moro hayvonlarni jarrohlik yo‘li bilan odamsimon mavjudotlarga aylantiradi va bilim yo‘lida og‘riqni ahamiyatsiz deb hisoblaydi. Uchala asarda mas’uliyat masalasi uch nuqtada markazlashadi, ya’ni yaratilgan mavjudot, olimning o‘z ruhi va tajriba qurboni. Doyl ijodi shu an’ana ichida shakllangan, biroq u mas’uliyat chegarasini laboratoriyadan jamiyatga, so‘ngra tarix va abadiyat sohasiga olib chiqadi.

Doylning ilk ilmiy romansi “Raffls Xouning kashfiyoti”da mas’uliyat jamiyat oldidagi mas’uliyat sifatida qo‘yiladi. Qahramon qo‘rg‘oshinni oltinga aylantirish usulini topadi va boyligini qishloq aholisining farovonligi uchun sarflaydi. Biroq uning har bir sovg‘asi odamlarni mehnatdan sovutadi, hasad va tama’ni kuchaytiradi. Doyl buni shunday umumlashtiradi: “Every blessing which he tried to give turned itself into a curse” [11] – “U bermoqchi bo‘lgan har bir ne’mat la’natga aylanib ketardi” (Muallif tarjimasi). Bu asarda kashfiyot yovuz niyatda ishlatilmaydi, aksincha, uning muallifi yaxshilik qilmoqchi. Fojia shundaki, ezgu niyat jamiyatning tayyor emasligi bilan to‘qnashadi. Xou o‘z xatosini anglab, ilmiy faoliyatga qaytishga qaror qiladi, biroq bu qaror kechikkan bo‘ladi. Do‘sti Robert uning o‘limini “I think it was a broken heart” [11] – “Menimcha, yuragi sindi” (Muallif tarjimasi) deb izohlaydi. Ixtirochi o‘z kashfiyotining oqibatlarini ko‘tara olmaydi. Doyl talqinida mas’uliyat ixtironi yaratishda emas, uni jamiyatga berishda boshlanadi.

“Braun-Perikordning ulkan motori” hikoyasida mas’uliyat ikki hamkor o‘rtasidagi munosabat sathiga tushadi. Ixtirochi Perikord va mexanik Braun

uchuvchi apparat uchun motor yaratadi. Perikord ishni “I invent, you build. It is a fair division of labour” [12] – “Men ixtiro qilaman, siz qurasiz. Bu mehnatning adolatli taqsimoti” (Muallif tarjimasi) deb taqsimlaydi. Braun esa “An abstract thought won’t turn an engine” [12] – “Mavhum fikr dvigatelni aylantirmaydi” (Muallif tarjimasi) deb javob qaytaradi. Ikki jumla ilmiy kashfiyotda g‘oya va mehnat, nazariya va amaliyot o‘rtasidagi ziddiyatni aniq ifodalaydi. Sinov muvaffaqiyatli o‘tgach, Braun patentni faqat o‘z nomiga rasmiylashtirganini ma’lum qiladi va janjal paytida halok bo‘ladi. Perikord jasadni motorga bog‘lab, dengiz uzra uchirib yuboradi, o‘zi esa aqlini yo‘qotadi. Hikoya so‘ngida shifokorlarning “It is the most delicate machine which is most readily put out of gear” [12] – “Eng nozik mashina eng oson ishdan chiqadi” (Muallif tarjimasi) degan so‘zlari keltiriladi. Mashina inson aqliga metafora bo‘lib qoladi. Bu hikoyada kashfiyot jamiyatga yetib bormaydi, u ikki kishi o‘rtasidagi shon-shuhrat va mulk kurashida halok bo‘ladi. Doyl ilm-fanning ijtimoiy institut sifatidagi zaif nuqtasini, ya’ni mualliflik huquqi masalasini ko‘rsatadi.

“Yo‘qolgan dunyo”da mas’uliyat masalasi yangi, “boshqa” mavjudot bilan munosabat shaklida qo‘yiladi. Yassi tog‘da ekspeditsiya a’zolari hindular bilan ittifoq tuzib, maymunodamlarga qarshi urushda qatnashadi. G‘alabadan so‘ng Chellenjerning holati shunday tasvirlanadi: “Challenger’s eyes were shining with the lust of slaughter” [13] – “Chellenjerning ko‘zlari qirg‘in ishtiyoqidan chaqnab turardi” (Muallif tarjimasi). Professor bir xalqning boshqa xalqni bosib olishini ma’nosiz deb, asrlar tongida inson hayvonlar ustidan qozongan g‘alabalarni esa haqiqiy fathlar deb e’lon qiladi [13]. Bu nutqda ijtimoiy darvinizm ruhidagi qarash ochiq bayon qilingan. Biroq Doyl bu nuqtayi nazarni so‘zsiz qabul qilmaydi. Hikoyachi Meloun shu zahotiyoq izoh beradi: “It needed a robust faith in the end to justify such tragic means” [13] – “Bunday fojiali vositalarni oqlash uchun maqsadga juda mustahkam ishonch kerak edi” (Muallif tarjimasi). Keyingi sahifada esa erkak maymunodamlar qirib tashlangani, urg‘ochi va bolalari qullikka haydalgani xotirjam ohangda qayd etiladi. Tasvirning sovuqqonligi o‘quvchida savol uyg‘otadi. Ilm uchun “ajoyib tajriba” bo‘lgan voqea boshqa tomon uchun

qirg‘indir. Shu tariqa romanda olimning nigohi va hikoyachining nigohi bir-biridan ajratiladi, mas’uliyat masalasi esa ochiq qoldiriladi.

Shu romandagi yana bir epizod mas’uliyatni boshqa tomondan ko‘rsatadi. Chellenjer o‘z farazini isbotlash uchun Londonga tirik pterodaktilni olib keladi. Jonzot zaldan uchib chiqib ketgach, uning taqdiri faqat tasodifiy guvohliklar orqali ma’lum bo‘ladi. Marlboro-xaus oldida navbatchilikda turgan soqchi Mayls postini tashlab qochgani uchun harbiy sudga tortiladi, uning tushuntirishiga ko‘ra, u oy fonida iblisni ko‘rgan [13]. Kemaning bort jurnalida esa ertasi kuni Atlantika tomon uchib ketayotgan g‘alati maxluq qayd etiladi. Hikoyachi “the last European pterodactyl” [13] – “so‘nggi yevropalik pterodaktil” (Muallif tarjimasi) okeanda halok bo‘lgan bo‘lsa kerak, deb yozadi. Ilmiy g‘alaba begunoh soqchining jazolanishi va noyob jonzotning halokati bilan yakunlanadi. Doyl bu tafsilotlarni kulgili ohangda beradi, biroq ular kashfiyot bahosi haqida o‘ylashga undaydi.

1914-yilda e’lon qilingan “Xavf!” hikoyasida mas’uliyat davlat va jamiyat sathiga ko‘tariladi. Voqea kichik bir davlatning suv osti kemalari flotiliyasiga qo‘mondonlik qilgan kapitan Siriusning bort jurnali shaklida beriladi. U sakkizta suv osti kemasi yordamida Britaniyaga oziq-ovqat olib keluvchi kemalarni cho‘ktirib, mamlakatni ochlik yoqasiga olib keladi [14]. Bu hikoyada ilmiy-texnik yangilik, ya’ni suv osti kemasi qurol sifatida tasvirlanadi. Mas’uliyat ixtirochiga emas, yangi texnikaning xavfini ko‘rmagan siyosatchi va harbiylarga yuklanadi. Kapitan inglizlar armiya va flotga juda katta mablag‘ sarflagani, biroq sinov kuni bu kuch hech qanday foyda bermaganini qayd etadi. Hikoya chiqqanidan ko‘p o‘tmay suv osti urushi haqidagi ogohlantirish tasdiqlangan [15]. Bu asar ilmiy fantastikaning ogohlantiruvchi vazifasini aniq namoyon etadi. Kashfiyot oqibatini oldindan ko‘rish ham mas’uliyatning bir shaklidir.

Kechki davrda mas’uliyat tabiat va koinot oldidagi mas’uliyat sifatida qo‘yiladi. “Dunyo chinqirganda” hikoyasida Chellenjer Yer qobig‘ini burg‘ulab, sayyoraning tirik organizm ekanini isbotlamoqchi bo‘ladi. Burg‘u Yerning sezgir qatlamiga yetganda sayyora vulqon otilishlari va dahshatli chinqiriq bilan javob qaytaradi [15]. Olim haq bo‘lib chiqadi, biroq uning isboti tirik mavjudotga og‘riq

yetkazish orqali qo‘lga kiritiladi. Ilk asarlardagi “kashfiyot jamiyatni buzadi” degan g‘oya bu yerda “bilim olish yo‘li tabiatga zo‘ravonlik bo‘lishi mumkin” degan g‘oyaga aylanadi. Bu hikoyani Uellsning doktor Moro haqidagi romani bilan qiyoslash mumkin. Ikkala asarda ham olim tirik mavjudotning og‘rig‘ini ilmiy natija oldida ikkinchi darajali deb hisoblaydi.

“Marakot jarligi”da mas’uliyat masalasi metafizik o‘lchov oladi. Okean tubida omon qolgan Atlantida sivilizatsiyasi tarixida tabiat sirlarini chuqur egallagan, o‘limni yengib, abadiy hayotga erishgan mavjudot bor. U o‘zini shunday tanishtiradi: “I am Baal-seepa. I am the Lord of the Dark Face” [16] – “Men Baal-seepaman. Men Qora yuz hukmdoriman” (Muallif tarjimasi). Baal-seepa insoniyat tarixidagi qirg‘inlar ortida o‘zi turganini da’vo qiladi. Uning bilimi axloqiy cheklovdan butunlay xoli. Shu sababli abadiy hayot uning uchun mukofot emas, jazo bo‘lib chiqadi. U “Oh, mortals, never pray to be delivered from death” [16] – “Ey, fanoiylar, hech qachon o‘limdan xalos bo‘lishni so‘ramanglar” (Muallif tarjimasi) deydi. Qahramonlar uni ilm yoki qurol bilan emas, ruhiy kuch bilan yengadi. Doylning kechki qarashida axloqsiz bilim o‘z egasini ham halok qiladi.

Mas’uliyat masalasi Doyl asarlarida hikoya shakli darajasida ham namoyon bo‘ladi. Uning ko‘plab ilmiy-fantastik asarlari hisobot, bort jurnali yoki maktub shaklida yozilgan. Bunday shakl hikoyachini voqeaning guvohigina emas, uni jamiyatga yetkazish uchun javob beruvchi shaxsga aylantiradi. “Xavf!” hikoyasidagi bort jurnali dushman zobitining iqrornomasi sifatida o‘qiladi, unda harbiy g‘alaba bayoni bilan birga ochlikka mahkum bo‘lgan ingliz ishchilariga achinish ham qayd etilgan [14]. “Yo‘qolgan dunyo”da Meloun gazetaga yuborgan maktublarida faqat ko‘rganini yozishga harakat qiladi va professorlarning bahsli xulosalarini o‘z bahosidan ajratadi. Shu tariqa Doyl ilmiy kashfiyot haqidagi haqiqatni yetkazishni ham axloqiy burch sifatida talqin qiladi. Olim kashfiyot uchun, guvoh esa uning to‘g‘ri bayon etilishi uchun mas’uldir. Bu xususiyat Doylning jurnalistika va hujjatli nasr an’analari bilan yaqin aloqasini ko‘rsatadi.

Tahlil Doyl asarlarida mas’uliyatning to‘rt yo‘nalishini ajratishga imkon beradi. Birinchisi jamiyat oldidagi mas’uliyat bo‘lib, u “Raffls Xouning

kashfiyoti” va “Xavf!”da ko‘rinadi. Ikkinchisi hamkor va ilmiy jamoa oldidagi mas’uliyat bo‘lib, u “Braun-Perikordning ulkan motori”da mualliflik kurashi shaklida beriladi. Uchinchisi “boshqa” mavjudot va tabiat oldidagi mas’uliyat bo‘lib, “Yo‘qolgan dunyo” va “Dunyo chinqirganda”da namoyon bo‘ladi. To‘rtinchisi abadiy, axloqiy tartib oldidagi mas’uliyat bo‘lib, “Marakot jarligi”da eng yuqori nuqtasiga yetadi. Yo‘nalishlar xronologik ketma-ketlikda qat’iy almashmaydi, biroq umumiy harakat aniq. Doyl ijodida mas’uliyat doirasi laboratoriya va ikki kishi munosabatidan boshlanib, jamiyat va tabiatga, so‘ngra metafizik tartibga qadar kengayadi.

Doyl asarlarini an’ana bilan qiyoslash yana bir farqni ko‘rsatadi. Shelli, Stivenson va Uells asarlarida mas’uliyatsiz olim odatda halok bo‘ladi yoki o‘z ijodining qurboniga aylanadi. Doylda esa jazo har doim ham olimga tushmaydi. Chellenjer ijtimoiy darvinizm ruhidagi nutqidan keyin ham sharafga sazovor bo‘ladi, uning kashfiyoti bahosini maymunodamlar, soqchi va pterodaktil to‘laydi. Doyl bu adolatsizlikni ochiq qoralamaydi, uni hikoyachining shubhasi va kinoya orqali ko‘rsatadi. Bu usul ingliz ilmiy romansining axloqiy masalani to‘g‘ridan to‘g‘ri nasihat bilan emas, nuqtayi nazarlar to‘qnashuvi orqali qo‘yish an’anasiga mos keladi.

Xulosa: Ingliz ilmiy fantastikasida ilmiy kashfiyot va axloqiy mas’uliyat masalasi janrning boshlanishidan markaziy o‘rinda turadi. Shelli, Stivenson va Uells asarlarida mas’uliyat yaratilgan mavjudot, olimning o‘z ruhi va tajriba qurboni atrofida jamlanadi. Doyl bu an’anani davom ettirib, mas’uliyat doirasini kengaytiradi. Uning ilk asarlarida kashfiyot jamiyatni buzadi yoki hamkorlar o‘rtasidagi kurashga sabab bo‘ladi. “Yo‘qolgan dunyo”da olimning g‘alabasi “boshqa” mavjudotlar hisobiga qo‘lga kiritiladi va hikoyachi bu g‘alabaga shubha bilan qaraydi. “Xavf!” hikoyasida texnik yangilikning xavfini oldindan ko‘rish mas’uliyatning ogohlantiruvchi shakli sifatida beriladi. Kechki asarlarda tabiatga zo‘ravonlik va axloqsiz bilimning metafizik jazosi tasvirlanadi. Doyl mas’uliyat masalasini nasihat orqali emas, olim, hikoyachi va qurbon nuqtayi nazarlarining to‘qnashuvi orqali ochadi. Xulosalar tahlil qilingan asarlar doirasida amal qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aldiss B.W. Billion Year Spree: The True History of Science Fiction. – Garden City, NY: Doubleday, 1973.

2. Suvin D. Metamorphoses of Science Fiction: On the Poetics and History of a Literary Genre. – New Haven; London: Yale University Press, 1979. – 317 p.

3. Stableford B. Scientific Romance in Britain, 1890–1950. – London: Fourth Estate, 1985.

4. Scientists // The Encyclopedia of Science Fiction / ed. by J. Clute, D. Langford. – 4th ed. [Elektron resurs]. – URL: https://sf-encyclopedia.com/entry/scientists

5. Фетисова А.Н. Научная фантастика в условиях модерна и постмодерна: культурно-исторические аспекты: дис. ... канд. филос. наук: 24.00.01. – 2008. – 147 с.

6. Урнов М.В. На рубеже веков: Очерки английской литературы (конец XIX – начало XX в.). – М.: Наука, 1970.

7. Abdurashidova N. Science fiction by Arthur Conan Doyle: solving worldwide issues // O‘zMU xabarlari. – 2024. – № 1/1/1. – B. 239–241.

8. Shelley M. Frankenstein; or, The Modern Prometheus. – London: Lackington, Hughes, Harding, Mavor & Jones, 1818.

9. Stevenson R.L. Strange Case of Dr Jekyll and Mr Hyde. – London: Longmans, Green, and Co., 1886.

10. Wells H.G. The Island of Doctor Moreau. – London: Heinemann, 1896.

11. Doyle A.C. The Doings of Raffles Haw [Elektron resurs]. – Project Gutenberg (eBook #8394). – URL: https://www.gutenberg.org/ebooks/8394

12. Doyle A.C. The Great Brown-Pericord Motor // Doyle A.C. The Last Galley: Impressions and Tales [Elektron resurs]. – Project Gutenberg (eBook #8727). – URL: https://www.gutenberg.org/ebooks/8727

13. Doyle A.C. The Lost World. – London: John Murray, 1964. – 215 p.

14. Doyle A.C. Danger! and Other Stories [Elektron resurs]. – Project Gutenberg (eBook #22357). – URL: https://www.gutenberg.org/ebooks/22357

15. Stableford B., Clute J. Doyle, Arthur Conan // The Encyclopedia of Science Fiction / ed. by J. Clute, D. Langford. – 4th ed. [Elektron resurs]. – URL: https://sf-encyclopedia.com/entry/doyle_arthur_conan

16. Doyle A.C. The Maracot Deep [Elektron resurs]. – Standard Ebooks. – URL: https://standardebooks.org/ebooks/arthur-conan-doyle/the-maracot-deep